

RAM MOHAN ROYNING AYOLLAR HUQUQLARI HAQIDAGI QARASHLARI: SATI, TA'LIM VA IJTIMOY TENGLIK MASALASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-611-614>

Mannobova Munisa O'ktamjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi
1-kurs magistranti

munisamannobova18@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent *Ikramova I.R.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hind ma'rifatparvarlaridan biri bo'lgan Raja Ram Mohan Royning ayollar huquqlari borasidagi qarashlari va islohotlari batafsil yoritilib beriladi. Shuningdek, zamonaviy davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblangan “gender tengligi” doirasida ayollarning ijtimoiy salohiyati ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Ram Mohan Roy, ma'rifatparvarlik, Brahma Samaj, sati, kastachilik, ayollar huquqlari, “Samvad Kaumudi” va “Mirat ul-Axbar” gazetalari, gender tenglik.

Аннотация. В данной статье подробно освещаются взгляды и реформаторская деятельность одного из представителей индийского Просвещения — Раджи Рам Мохан Роя — в области прав женщин. Кроме того, в рамках одной из актуальных проблем современности — «гендерного равенства» — раскрывается социальный потенциал женщин.

Ключевые слова: Рам Мохан Рой, просветительство, Брахмо Самадж, сати, кастовая система, права женщин, газеты «Самвад Каумуди» и «Мират уль-Акбар», гендерное равенство.

Annotation. This article provides a detailed analysis of the views and reforms of Raja Ram Mohan Roy, one of the prominent Indian Enlightenment thinkers, concerning women's rights. It also examines women's social potential within the framework of “gender equality,” which is regarded as one of the most pressing issues of the modern era.

Keywords: Ram Mohan Roy, Enlightenment, Brahma Samaj, sati, caste system, women's rights, Samvad Kaumudi and Mirat-ul-Akhbar newspapers, gender equality.

KIRISH

Hindiston diyori xilma-xilligi bilan boshqa mintaqa mamlakatlari orasida ajralib turadi. Uning turfa xilligi esa jamiyat a'zolari, ularning turmush tarzi, tili, dini va hatto kiyadigan liboslarigacha farqlanishida ko'rinadi. Ushbu maqola orqali hind ayollarining turli davrlar oralig'ida turlicha turmush muhitlarida yashaganliklarini bilib olsak bo'ladi.

Mazkur maqolaning obyekti sifatida XIX asr boshlarida Hindistonda shakllangan ijtimoiy-ma'rifiy jarayonlar va uning yetuk vakillaridan biri bo'lgan Raja Ram Mohan Royning ushbu jarayondagi o'rnini belgilaymiz. Maqolaning predmetini esa Ram Mohan Royning ayollar huquqlari, sati odatining bekor qilinishi, gender tengligi va ayollarning ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy yondashuvi va amaliy islohotchilik harakatlari tashkil

etadi. Maqolaning asosiy maqsadi Ram Mohan Roy g‘oyalarini zamonaviy “gender tengligi” konsepsiyasiga mos tarzda tahlil qilish va uning islohotlarining bugungi kunda ham dolzarb ekanligini ochib berishdir.

TAHLIL VA METODLAR

Raja Ram Mohan Royning ayollar huquqlari masalasidagi qarashlarini tahlil qilish orqali ushbu dolzarb masala faqatgina ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki diniy-falsafiy va axloqiy muammo sifatida ham e‘tiborga olinishi zarurligini ifodalaydi. Ayollarga past baho berilishi, ta‘limdagi cheklovlar, an‘analarga moslashgan turmush tarzi va ijtimoiy chegaralar markaziy o‘rin egallovchi jihatlardir. Ram Mohan Roy o‘zining bir qancha asarlarida ham bu masalalarni batafsil yoritib beradi. Hatto, “Samvad Kaumudi” va “Mirat ul-Axbar” nomli gazetalarni ham chop ettiradi.

Maqolani to‘laonli yoritib berishda tarixiylik, tekstual, qiyosiy, mantiqiy-foydalanildi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

XIX asr Hindiston jamiyatida ijtimoiy islohotlarning amaliy tarzda yuzaga chiqqan davri bo‘ldi. Ushbu davrning eng ko‘zga ko‘ringan ma‘rifatparvarlaridan biri bu Ram Mohan Roydir. Uning islohotlari jamiyatning qayta qurilishiga va eski tartibdagi turmush tarzidan voz kechishga sabab bo‘ldi. Mohan Royning harakatlari “Brahma Samaj” dasturida o‘z ifodasini topdi. Ya‘ni, jamiyatning tabaqalarga bo‘linishi, diniy odat sifatida qabul qilingan amallar, ijtimoiy tengsizlik, ayollar va bolalarga nisbatan imkoniyatlarning cheklovi, ta‘lim, zamonaviy rivojlanishdan ortda qolish va mustamlaka davrida kechayotgan hayot tarzi Mohan Royning ma‘rifatparvar sifatida faoliyatini boshlashiga turtki bo‘ldi.

Jamiyatning ortda qolishidagi asosiy sabab bu diniy va eski qadriyatlarga suyangan holda yashashdir. Raja Ram Mohan Roy mana shu holatlarni bartaraf etishda boshlagan ilk harakati “sati” odatini bekor qilish bo‘lgan. “Sati – hindlarning xurofiy odati. Unga ko‘ra, beva ayollar vafot etgan eri bilan birga o‘tda kuydirilgan”¹. Bu odatni hind jamiyati diniy amal sifatida baholaydi. Ammo, hech bir diniy manbada bu kabi qiyin va adolatsiz odat bayon etilmagan. Negaki, sati amali ayollarning beva qolgandan so‘ng yashash huquqidan mahrum etuvchi odatdir. “Har doim do‘zax va g‘ayriinsoniy deb hisoblangan bu amaliyot Hindistonda ayollarni yashash huquqidan mahrum qildi. Bu ularni erlariga butunlay qaram qilib qo‘ydi. Shuning uchun erining o‘limidan so‘ng keyinchalik ular o‘zlarini erining dafn marosimi bilan birga qurbon qilishlari yoki hayotlarini o‘zgartirishlari kerak edi.”². Bu odat hech bir diniy manbada asoslanmagan bo‘lsada, uning hind jamiyatida qay tartibda vujudga kelganligi haqida ham qarashlar mavjud. Masalan, Javoharlar Neru bu borada skif qabilalaridan qolgan an‘ana sifatida baholasa, boshqalar hindlarning qat‘iy belgilangan odati va

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sati>

² डॉ० संजय कुमार मिश्रा. ब्रिटिशकालीन नारी समाज सुधारको का योगदान (Doktor Sanjay Kumar Mishra. Britaniya mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy islohotchilar harakati)/International Journal of Humanites and Social Science Research, 2019, №5. – p. 60.

o'z garmasligini tan oladilar. Ram Mohan Roy esa hind va boshqa din manbalarini o'qiganligi, shuningdek hech bir din doirasida ayollarga nisbatan bunday kuchli holatni qo'llash borasida hech qanday asos keltirilmaganligini bilganligi bois bu odatni 1829-yilda bekor qilishga erishadi. “Sati odatining bekor qilinishi ayollarning uyg'onishini qo'llab-quvvatlashda muhim qadam bo'lib chiqdi”³. Ushbu natijaga erishgunga qadar bo'lgan davrda esa sati borasidagi har qanday fikr va mulohazalarni jamlab o'rganib chiqadi. “Erining o'limidan so'ng unga sodiq bo'lgan kaptar olovga kirdi va osmonga ko'tarilib, u yerda erini topdi”⁴. Shu kabi mulohazalarda ayollarning majburiyatlari turli obrazlar orqali jamiyat ongiga singdirilgan. Ayolning sati amalini bajarishi uning ota-onasiga munosib farzand bo'lishi va erining oldida sadoqatli ayol ekanligini isbotlab bergan. An'anaga aylanib qolgan bu amalning jamiyatning tub-tubiga qadar singib ketganligining sababi esa haligacha saqlanib qolgan kastachilikdir. Xususan, yuqori tabaqa vakillari ayollarining sati amalini bajarishi ularning yuqori mavqei va kastasining qolgan kastalardan ajralib turuvchi jihat ekanligi ifodalagan. Birgina satining bajarilishi orqali jamiyatda tabaqalanishning kuchayishi va ayollarga nisbatan past darajada munosabatda bo'lishga olib kelgan. Mana shu holatlarni bartaraf etishga erishgan “Brahma Samaj” vakillari esa o'z islohotlarini yanada kengaytirganlar. Buning bir ko'rinishi ta'limga ochilgan yo'ldir. Mohan Roy ingliz mustamlakasi davri ekanligiga qaramay chet mamlakatlarning rivojlanib borayotganligi va nega o'zining mamlakatida haligacha diniy qadriyatlarga tayanib yashab kelinayotganligiga chek qo'yishga harakat qiladi. O'z do'stlari bilan birgalikda “Hindu Kolleji”ni ochadi va darsliklar chiqara boshlaydi. Darsliklar asosan ingliz tilida bo'lib, bu orqali ta'lim olish eng avvalo ayol-qizlar uchun va bolalar uchun zarur ekanligini jamiyatga singdiradi. Ayollarga yuqori baho berish, bolalarga imkoniyatlar yatarish masalalasida kunlik gazeta va jurnallarni nashr ettirishni ham yo'lga qo'yadi. Raja Ram Mohan Roy islohotlarining natijasi esa ta'lim islohotlaridan so'ng sezilarli darajada yuzaga chiqadi. Xususan, jamiyatda tenglik, ayollarga berilgan qiymatning yuqorilashi, ta'lim olish imkoniyatlarining yo'lga qo'yilishi buning yorqin namunasidir.

XULOSA

Bugungi kunga kelib Hindistonda kastachilik tizimi va turli dinlar uyg'unligidagi jamiyat yashab kelayotgan bo'lsa-da, ilm-fan va zamonaviy rivojlanib borish doirasida yuqori natijalarga erishib kelinmoqda. Hech qanday tabaqalanish holatlari kuzatilmagan va gender tengligi borasida ikki jins vakillari uchun ham har qanday imkoniyatlar yaratilgan. Tibbiyot, texnologiya borasida esa ilg'or mamlakatlar qatorida turuvchi Hindistonning chet davlatlar bilan hamkorlik aloqalari esa yuqoridir. Bizning vatanimiz O'zbekistonda ham ta'lim borasida

³ डॉ० संजय कुमार मिश्रा. ब्रिटिशकालीन नारी समाज सुधारको का योगदान (Doktor Sanjay Kumar Mishra. Britaniya mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy islohotchilar harakati)//International Journal of Humanites and Social Science Research, 2019, №5. – p. 60.

⁴ Ram Mohan Roy. Conference between an Advocate and an Opponent of the Practice of Burning Widows Alive. – Calcutta, 1823. – p.12.

hindistonlik talaba yoshlar bilan almashinuv dasturlari amal qiladi. Yurtimizda imkoniyatlarni yanada kengaytirish maqsadida joriy etilayotgan qonunlar esa bu harakatlarni yanada mustahkamlab beradi. Yurtimiz yoshlari yoki xorijdan kelib tahsil oluvchi ilm ahli uchun ham tenglik masalalari birdek belgilab qo'yilgan. Bizning yurtimizda ham ayol-qizlarning ta'lim olishi, rivojlanishi uchun ilm-fan borasidagi teng huquqli ekanligi buning yorqin ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-87-son Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/4494849>
2. Ram Mohan Roy. Conference between an Advocate and an Opponent of the Practice of Burning Widows Alive. – Calcutta, 1823. – p.18.
3. डॉ० संजय कुमार मिश्रा. ब्रिटिशकालीन नारी समाज सुधारको का योगदान (Doktor Sanjay Kumar Mishra. Britaniya mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy islohotchilar harakati)//International Journal of Humanites and Social Science Research, 2019, №5. – p. 60-66.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sati>